FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Safarova Zuxra Qurbon qizi – Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi Uzbekiston.

Annotatsiya. *Ushbu maqola frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Frazeologiya mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida nutqqa tayyor holatda kirib keladigan va ma’nosi barqaror bo‘lgan birliklarni o‘rganadi. Mazkur tadqiqot V.V. Vinogradovning frazeosemantik konsepsiyasi asosida o‘zbek va ingliz tilidagi frazeologizmlarning semantik, kognitiv, pragmatik va madaniy jihatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarning milliy mentalitet va madaniyat bilan bog‘liqligi, ularning leksik birliklardan farqlanishi ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so’zlar: *frazeologiya, frazeologik birlik, idiom, frazeosemantika, semantik tahlil, kognitiv yondashuv, pragmatik yondashuv, madaniy kod, milliy mentalitet, leksik birlik*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИНГВОКУЛТУРНЫХ СВОЙСТВ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Сафарова З.К – независимый исследователь Каршинского государственного университета

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению лингвистической и культурной природы фразеологических единиц. Фразеология как самостоятельная область языкознания изучает устойчивые единицы, которые воспроизводятся в речи в готовом виде и характеризуются стабильным значением. В настоящем исследовании на основе фразеосемантической концепции В. В. Виноградова анализируются семантические, когнитивные, прагматические и культурные аспекты фразеологизмов узбекского и английского языков. Кроме того, рассматривается связь фразеологических единиц с национальным менталитетом и культурой, а также их отличие от лексических единиц.*

Ключевые слова*: фразеология, фразеологическая единица, идиома, фразеосемантика, семантический анализ, когнитивный подход, прагматический подход, культурный код, национальный менталитет, лексическая единица*

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING THE LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Safarova Z. Q. – *Independent researcher at Karshi State University*

Abstract. *This article is devoted to the study of the linguistic and cultural nature of phraseological units. As an independent field of linguistics, phraseology examines fixed expressions that are reproduced in speech in a ready-made form and characterized by stable meanings. Based on V. V. Vinogradov's phraseosemantic concept, this study analyzes the semantic, cognitive, pragmatic, and cultural aspects of phraseological units in the Uzbek and English languages. The article also examines the relationship between phraseological units and national mentality and culture, as well as their differences from lexical units.*

Keywords: *phraseology, phraseological unit, idiom, phraseosemantics, semantic analysis, cognitive approach, pragmatic approach, cultural code, national mentality, lexical unit*

Frazeologiya (yunoncha *phrasis* – ifoda, ibora va *logiya* – ta'limot) tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lib, u nutqqa tayyor holda kiradigan va leksik hamda semantik jihatdan tarkibiy qismlari o‘zaro mos kelmaydigan, ma'nosi barqaror birliklarni o‘rganadi. Frazeologiyaning eng muhim vazifalaridan biri – frazeologik birliklarni nutqda erkin hosil bo‘ladigan so‘z birikmalaridan ajratib olish va ularni aniqlash mezonlarini belgilashdir.

Mazkur tadqiqotda V.V. Vinogradovning frazeosemantik konsepsiyasi asosida o‘zbek va ingliz frazeologizmlarining lingvistik va madaniy tabiatini tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning milliy mentalitet va madaniyat bilan bog‘liqligi, leksik birliklardan farqlanishi ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda struktural, semantik, kognitiv, pragmatik va madaniy-antropologik yondashuvlar qo‘llaniladi, bu esa frazeologik birliklarning murakkab va ko‘p qirrali tabiatini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda iboralarni tadqiq etuvchi bo‘lim frazeologiya deb yuritiladi, mazkur birliklar esa ilmiy termin bilan aytganda frazeologizmlar nomi bilan ataladi. Frazeologizmlarni tilning leksik-semantik va sintaktik

qatlamlaridan farq qiluvchi alohida sathga mansub birliklar sifatida qarash frazeologik normani ham adabiy tilning boshqa normalari qatorida e’tiborga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois frazeologik birliklarni izohli lug‘atlarda qayd etish jahon tilshunosligida keng e’tirof etilgan amaliyot hisoblanadi.

Tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari kabi frazeologiya ham o‘zining shakllanish va rivojlanish bosqichlariga ega. Garchi frazeologik birliklar kelib chiqishiga ko‘ra nihoyatda qadimiy bo‘lsa-da, frazeologiya mustaqil ilmiy soha sifatida qariyb ikki asrlik tarixni qamrab oladi. Mazkur fan asoslari shveytsariyalik olim Sharl Balli tomonidan yaratilgan bo‘lib, u “Fransuz stilistikasi” (1909) asarida so‘z birikmalari, ya’ni frazeologik birliklarni tahlil qilishga bag‘ishlangan maxsus bo‘limlarni kiritgan.

Frazeologiya tilshunoslikning keying taraqqiyotida tez rivojlangan sohalardan biridir. Rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya ancha ilgari o’rganila boshlangan bo’lsa, o’zbek tilshunosligida bu soha sistemali ravishda o’rganila boshlaganini o’tgan asirning 40-50-yillariga to’g’ri keladi. Bu davrda Sh. Raxmatullayev (1969), G.A. Bayramov (1970), G.X. Axunzyakov (1974), V.G. Uraksin (1975), L.K. Bayramova (1983), M.F. Chernov (1986*)* larning doktorlik dissertastiyalari frazeologizmlar tadqiqiga bag’ishlangan. [1]

Frazeologik birliklar til tizimining boshqa darajalari bilan bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan, mustaqil lingvistik intizomning obyekti sifatida shakllangan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, iboralarning kategoriyaviy belgilariga doir tasavvurlarni shakllantirishdagi alohida xizmat rus olimlariga tegishlidir. Bugun bu olimlarni milliy mansubligiga ko‘ra ajratishning zarurati yo‘q, chunki umumilmiy va xususiy lingvistik metodlar, o‘tkazilgan tadqiqotlarning maqsad va vazifalari nuqtayi nazaridan bu yagona fan edi. Shubhasiz, frazeologik birliklar haqidagi ushbu faning konseptual asosini akademik V.V. Vinogradovning asarlari tashkil etadi. [2]

V.V.Vinogradovning frazeologik konsepsiyasini to‘la-to‘kis frazeosemantik konsepsiya deb atash mumkin, chunki u so‘z birikmasidan kattaroq birliklarni tahlil qilishda komponentlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni tahlil qilishga asoslanadi. Uning tahlili iboralarning semantik tabiatiga qaratilgan bo‘lib, bu V.V. Vinogradovda frazeologik birliklarning tizimli aloqalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan maxsus yo‘nalishning mavjud emasligini ko‘rsatadi.V.V. Vinogradov o’zining “Лексикология и лексикография” [3] kitobida Frazeologiya to’g’risida quyidagi fikrni bildiradi: lingvistik fanlar tizimida frazeologiya ba’zan umuman o‘ziga joy topolmaydi, biroq ko‘proq hollarda u leksikologiya bilan yonma-yon qo‘yiladi yoki unga kiritiladi. Frazeologiyaning hajmi, vazifalari va asosiy tushunchalari hozirgacha to‘liq aniqlanmagan.

Frazeologiyaning chegaralari, maqsadlari va asosiy toifalarining noaniqligi

bu faning erkin va mustaqil rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. “Fraza” so‘zi eng kam darajada barqaror va aniq ma’noga ega termin sifatida tan olinishi mumkin. Uning lingvistikadagi qo‘llanilishi juda xilma-xil va o‘zgaruvchandir. Shu sababli frazeologiyani *idiomatika* bilan almashtirish yoki siqib chiqarish bo‘yicha urinishlar bo‘lgan.

Ko‘plab lingvistlar “fraza” masalasini to‘liq holda so‘z muammosiga keltirib chiqarish mumkin deb o‘ylashgan. F.de Sossyur yozadi:«Birinchi qarashda frazalarning ulkan xilma-xilligini ma’lum bir zoologik turning a’zolari xilma-xilligiga o‘xshatish ma’quldek tuyuladi, ammo bu — illyuziya: bir turning hayvonlarida umumiy xususiyatlar ularni farqlovchi belgilariga qaraganda ancha muhimdir; aksincha, frazalarda farq ustunlik qiladi va agar shu xilma-xillik fonida ularni nima bog‘lab turishini izlasangiz, bilmay turib yana so‘zga, uning grammatik xususiyatlariga qaytasiz va yana o‘sha qiyinchiliklarga duch kelasiz»[4].

A.I. Molotkovning mashhur frazeologik lug‘atida esa frazeologizmlar ma’nosi bevosita “leksik ma’no” deb ataladi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchilar frazeologik birliklar ma’nosi bilan oddiy leksik birliklarning ma’nosi o‘rtasida hech qanday asosiy farqni ko‘rmaganlar. [5]

O’zbek olimlari Vinogradovning tasnifi va semasiologik qarashlarini qabul qilgan holda, uni o’zbek tilining o’ziga hos xususiyatlari bilan boyitgan. O’zbek frazeologiya maktabi A.G’ulomov, Sh. Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, A. Madvaliyev, N. Mahmudov, B. Yo’ldoshev va boshqa birqancha olimlar tomonidan asos solindi va frazeologiyani mustaqil ilmiy soha sifatida rivojlantirdilar.

A. Madvaliyev, N. Mahmudov va A. Nurmanovlar frazeologik birliklar milliy-madaniy semantikani tashuvchi ekanini takidlab, ularni milliy-madaniy konseptlar orqali tahlil qilganlar. Ular iboralarda xalqning ananaviy voqelikni idrok etish uslubi mujassam ekanini ta’kidlaydi.

Ularning fikricha frazeologiya o’zbek tilida juda boy va rang barang tizimga ega. Ular xalq tafakkurining mahsuli, milliy mentalitetni aks ettiruvchi o’ziga xos birlikdir. Frazeologik birliklarni leksik birliklardan farqlashda semantik yaxlitlik, tasviriylik, ko’chma ma’nolilik asosiy belgilardir.

Ingliz tilshunoslari ham frazeologiyalarning madaniy konatatsiyasi borasida ko’plab ilmiy izlanishlar olib borib ko’plab nazarish fikr mulohazalar bildirganlar. George Lakoff va Mark Johnson qarashlariga ko’ra frazeologizmlar madaniy konseptlarning metaforik tasavvurlaridan kelib chiqadi. Charles Fillmore va Alan Cruse frazeologizmlarning ma’nosi “frame”-ya’ni madaniy vaziyatlar tizimi orqali ochilishi va ideomalarni “cultural scripts” asosida taldin qilib, ularning ma’nosini madaniy stsenariylarga bog’lagan.

Frazeologizmlar til tizimining o‘ziga xos va murakkab qatlamini tashkil etib, ularning shakllanishi, mazmuni va qo‘llanilishida bir nechta nazariy yondashuvlar bir-birini to‘ldirib boradi. Tilshunoslikda bugungi kunga kelib frazeologik birliklarning tabiati turli yo‘nalishlar-struktural, semantik, kognitiv,

pragmatik hamda madaniy-antropologik maktablar nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Quyida ushbu asosiy ilmiy yondashuvlar mazmuni bayon qilinadi.

Struktural yondashuvga koʻra, frazeologik birliklar alohida soʻzlar yigʻindisi emas, balki mustaqil leksik birlik sifatida qaraladi. Ular leksik tizimning alohida qatlamini tashkil etib, oʻziga xos semantik yaxlitlik va tarkibiy barqarorlikka ega. Mazkur qarash, avvalo, rus tilshunosligida Vinogradov maktabi tomonidan shakllantirilgan boʻlib, u frazeologiyani mustaqil boʻlim sifatida ajratib bergan klassik struktural nazariyalarga asoslanadi.

Semantik yondashuv frazeologizmlarning mazmuniy tomoniga urgʻu beradi. Unda frazeologik birlikning ma’nosi tarkibiy komponentlarning oddiy yigʻindisidan hosil boʻlmaydi, balki koʻpincha metaforik, koʻchma yoki umumlashgan tushuncha sifatida yuzaga keladi. Bu yondashuvda “kompozitsionlik darajasi” aniqlanadi — ya’ni ma’no qanchalik komponentlar mazmunidan kelib chiqishi yoki chiqmasligi baholanadi. Natijada toʻliq, qisman yoki butunlay idiomatik frazalar farqlanadi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik frazeologizmlarni inson tafakkuridagi konseptual metaforalar tizimi bilan bogʻlaydi. Lakoff, Fillmore va ularning izdoshlari fikricha, idiomatik iboralar ongimizdagi konseptual xaritalarning til orqali gavdalangan shaklidir. Masalan, “vaqti tugamoq” kabi iboralar vaqtni “cheklangan resurs” konsepti asosida yaratadi. Demak, frazeologiya bu yondashuvda nafaqat til hodisasi, balki kognitiv jarayon mahsuli sifatida talqin qilinadi.

Soʻnggi oʻn yilliklarda korpus tilshunosligi frazeologiyani tadqiq etishda muhim vositaga aylandi. John Sinclair asos solgan kollokatsion nazariyaga koʻra, frazeologik birliklar yuqori darajada barqaror birga uchrashish (co-occurrence) xususiyatiga ega boʻlgan sintagmatik birliklar sifatida qaraladi. Statistik korpuslar frazeologizmlarning haqiqiy qoʻllanish chastotasi, variantlari va kontekstual xususiyatlarini aniq oʻrganish imkonini beradi.

Pragmatik yondashuvda frazeologizmlar kommunikativ vazifasi bilan baholanadi. Ular nafaqat ma’no tashiydi, balki muloqotning stilistik, ekspressiv, baholovchi hamda ijtimoiy identifikatsion funksiyalarini bajaradi. Idiomalarning haqiqiy ma’nosi ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘ladi, shu sababli diskurs tahlili frazeologiyaning mazmunini to‘liq ochib berishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek va ingliz frazeologiyalarini solishtirish shuni ko‘rsatadiki, har bir tilning frazeologik tizimi o‘sha jamiyatning ijtimoiy hayoti, madaniy qadriyatlari va kognitiv dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq. Shu bois, frazeologiya tilning struktur birliklarini boyitibgina qolmay, milliy identitet, madaniy meros va ijtimoiy ongni aks ettiruvchi til birligi sifatida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlar frazeologik birliklarning tili va madaniyati o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishini ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar

1. Azizova F. S. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari va ularni o‘rgatish muammolari. – Toshkent, 2002.
2. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. – Москва, 1933. – С. 108.
3. G‘ulomov A. O‘zbek tilining frazeologik birliklari va ularning uslubiy xususiyatlari. – Toshkent, 2024.
4. Mamedova F. A. V. V. Vinogradovning frazeologik konsepsiyasi. – Ilmiy maqola, 2010.
5. Madvaliyev A. O‘zbek tili frazeologiyasining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2015